

“NKMK” AJ Kuzatuv kengashining
2024-yil 7-iyundagi
4-son majlis bayonnomasiga
19-ilova

“NKMK” AJ Kuzatuv kengashining
2024-yil 7-iyundagi
4-son majlis bayonnomasi bilan
“TASDIQLANGAN”

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashi huzuridagi Strategiya va investitsiyalar
qo‘mitasi to‘g‘risida
N I Z O M

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom) O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning xuquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida”gi 2022-yil 8 apreldagi PF-101-son Farmoniga, Vazirlar Mahkamasining “2021-202-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2021-yil 29-martdagi 166-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasiga, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda – Jamiyat) Ustaviga, Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Jamiyat Kuzatuv kengashi huzuridagi Strategiya va investisiyalar qo'mitasining (keyingi o'rinlarda – Qo'mita) huquqiy maqomini, tarkibini, vakolatlarini va uning ishlash tartibini belgilaydi.

1.2. Qo'mitaning eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va Jamiyatning Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori asosida tashkil etiladi. Qo'mita Jamiyat Kuzatuv kengashining doimiy faoliyat yurituvchi ishchi organi hisoblanadi.

1.3. Qo'mita o'z faoliyatini amaldagi qonunchilik, Jamiyat Ustavi va mazkur Nizomga asosan amalga oshiradi.

II. Strategiya va investisiyalar qo'mitasining tarkibi

2.1. Qo'mita faqat Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolaridan - 3 kishidan iborat tarkibda tashkil etiladi.

2.2. Qo'mitaning a'zolari Jamiyat Kuzatuv kengashi raisining tavsiyasi asosida Kuzatuv kengashi a'zolaridan ularning vakolat muddati davriga ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Qo'mitaning raisi Qo'mita a'zolari orasidan Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Qo'mitaning raisi Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi bo'lmasligi lozim.

2.3. Qo'mitaning tarkibiga saylangan Kuzatuv kengashi a'zolari cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

2.4. Qo'mitaning a'zolari strategik va ustuvor yo'nalishlarini belgilash, investisiya loyihalari samaradorligini va ularning Jamiyat aksiyalari qiymatini oshirishda ta'sirini baholash maqsadlari va vazifalariga mos keluvchi malaka va/yoki tajribaga ega bo'lishi lozim. Qo'mitaning kamida bitta a'zosi strategik rejalashtirish va kamida bitta a'zosi investisiyalar samaradorligini baholash bo'yicha bir necha yillik tajribaga ega bo'lishi kerak.

2.5. Qo'mitaga rahbarlik qilish va faoliyatini tashkil etish Qo'mita raisi tomonidan amalga oshiriladi. Qo'mita raisining vaqtinchalik yo'qligida rais vazifasini bajarib turish a'zoldan biriga yuklatilishi mumkin.

2.6. Qo'mitaga ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha ovoz berish huquqisiz ushbu qo'mitada ishlash uchun zarur bo'lgan kasbiy malaka, bilim, tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lgan ekspertlar va mutaxassislarni jalb etilishi mumkin.

2.7. Qo'mita a'zolari o'rtasidagi funksiyalar taqsimlanishi Qo'mitaning raisi tomonidan amalga oshiriladi.

III. Strategiya va investisiyalar qo'mitasining asosiy vazifalari

3.1. Qo'mitaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Jamiyat va Jamiyat aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab ish olib borish, xususan, uzoq muddatli istiqbolda Jamiyat faoliyati samaradorligini hamda uning aktivlari, rentabelligi va investision jozibadorligini oshirishga hissa qo'shish;
- Jamiyat faoliyatining strategik maqsadlarini aniqlash, Jamiyat strategiyasining bajarilishini nazorat qilish, Kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish;
- Jamiyatning mavjud rivojlanish strategiyasiga o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlash;
- Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish;
- barqaror rivojlanish sohasida Jamiyat strategiyasini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish va Jamiyatning shaffof va mas'uliyatli biznes yuritishini targ'ib qilish;
- Jamiyatning barqaror rivojlanishga umumiy yondashuvining yaxlitligi nuqtai nazaridan Jamiyat faoliyatini nazorat qilish;
- korporativ ijtimoiy javobgarlik masalalarini ko'rib chiqish va Jamiyatning bu boradagi faoliyatini nazorat qilish;
- Jamiyatning atrof-muhit va mehnatni muhofaza qilish ko'rsatkichlarini monitoring qilish va ushbu sohalarda yillik va strategik tadbirlarni muvofiqlashtirish;
- Jamiyatning barqaror rivojlanishi sohasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- Jamiyatning transformasiya va xususiylashtirish jarayonlarini doimiy nazoratini olib borish hamda mazkur masalalar yuzasidan Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash;
- Jamiyatning dividend siyosati bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;
- Jamiyatning qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun ixtiyoriy va majburiy takliflarni baholash;
- Jamiyat va u tomonidan nazorat qilinadigan tashkilotlarni qayta tashkil etish va tugatish masalalarini ko'rib chiqish;
- Jamiyat va u tomonidan nazorat qilinadigan tashkilotlarning tashkiliy tuzilmasini o'zgartirish masalalarini ko'rib chiqish;
- Jamiyatning biznes-jarayonlarini va u tomonidan nazorat qilinadigan yuridik shaxslarni qayta tashkil etish masalalarini ko'rib chiqish;
- Jamiyatning investisiya faoliyatini nazorat qilish, istiqbolli investisiya loyihalari samaradorligini va ularning Jamiyat aksiyadorlik qiymatini oshirishda ta'sirini baholash;
- Jamiyatning yillik hisoboti va boshqa xujjatlariga kiritish uchun Qo'mita faoliyati natijalari to'g'risida hisobot tayyorlash va taqdim etish;
- Jamiyat Kuzatuv kengashiga kiritilgan quyidagi masalalarni dastlabki ko'rib chiqib, Kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish:
- Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi tasdiqlash;

- investisiya dasturi va loyihalarini tasdiqlash;
- Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida”gi Qonunining 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;
- Jamiyat tomonidan korporativ obligasiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligasiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning korporativ obligasiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyat filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;
- sho"ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish;
- Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki (yuridik shaxslar ustav kapitalidagi ulushlari va (yoki) aksiyalari) bilan bog'liq bitimlarni Konunchilikda belgilangan tartibda tuzish.
- Kuzatuv kengashi tomonidan yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarish.

3.2. Qo'mita strategik rivojlanish va investisiya faoliyatida tavakkalchilikning samaradorligini ta'minlash uchun:

- Jamiyatning rivojlanish strategiyasi va investisiya siyosatini ishlab chiqishda qatnashadi va tasdiqlash uchun Kuzatuv kengashiga kiritadi;
- Jamiyat faoliyatining strategik va ustuvor yo'nalishlarini bajarilishi va Jamiyatning investisiya faoliyatini samaradorligini baholashni o'tkazish tashabbusi bilan Kuzatuv kengashiga chiqadi;
- Kuzatuv kengashi oldida strategik rivojlanish va investisiya faoliyati masalalari bo'yicha hisobot beradi.

IV. Strategiya va investisiyalar qo'mitasi majlislarini tashkil etish va o'tkazish tartibi

4.1. Qo'mitaning majlisi Qo'mita raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Qo'mita a'zolarining talabiga ko'ra shuningdek, Jamiyat ijroiya organi rahbarining yozma talabiga ko'ra chaqiriladi.

4.2. Qo'mita har chorak yakuniga ko'ra, zarur bo'lganda har oyda, qo'mita a'zolarining shaxsan ishtirokida yoki boshqa aloqa tarmoqlaridan foydalanish yo'li bilan o'z majlislarini o'tkazib turishi lozim. Qo'mita Jamiyatning ijroiya organi va boshqa shaxslarni Qo'mita majlislariga qatnashish uchun taklif qilishi, shuningdek zarur bo'lganda ulardan axborot talab qilishi mumkin.

4.3. Qo'mita a'zolari muayyan masalaning kechiktirilmay hal etilishini talab qiladigan qoidabuzilishlar aniqlangan taqdirda Qo'mitaning shoshilinch majlisini chaqirilishini talab qilishlari mumkin.

4.4. Qo'mitaning raisi Qo'mita majlisidagi barcha ishtirokchilarga uni lozim darajada o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va unda olib chiqilgan masalalarni muhokama qilishda faol ishtirok etish

imkoniyatlarini yaratadi. Qo'mitaning a'zolari Qo'mita majlislarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish hamda ularda ishtirok etish uchun yetarli darajada vaqt ajratishlari lozim.

4.5. Qo'mita majlisida uning a'zolarining eng kamida 2/3 qismi ishtirok etsa, majlis vakolatli hisoblanadi, bunda Qo'mita raisi ishtirok etishi shart.

4.6. Qo'mitaning majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

4.7. Qo'mitaning majlisida masalalar hal etilayotganda Qo'mitaning har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Ovozlar teng kelgan taqdirda, Qo'mita raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Qo'mitaning qaroriga rozilik bildirmagan Qo'mita a'zosi o'zining majburiy tartibda majlis bayonnomasiga ilova qilinadigan alohida fikrini qayd etib qo'yish va uni Kuzatuv kengashi e'tiboriga havola qilish huquqiga ega.

4.8. Qo'mitaning qarori Qo'mita majlisining bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu bayonnomasi Qo'mita kotibi tomonidan yuritiladi va ovoz berishda ishtirok etgan Qo'mita a'zolari tomonidan imzolanadi.

4.9. Qo'mita majlislariga kotiblik qilish vazifasini Qo'mita tomonidan tayinlangan Jamiyat xodimi bajaradi..

– 4.10.Qo'mitaning raisi:

– Qo'mitaning ishini tashkil etadi;

– Qo'mita majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;

– Qo'mita majlislarida bayonnomasi yuritilishini tashkil etadi;

– Jamiyat ichki me'yoriy hujjatlari va mazkur Nizomda nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

– 4.11.Qo'mitaning kotibi:

– Qo'mita majlislarini bayonnomalarini yuritadi va rasmiylashtiradi;

– Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilishi uchun kun tartibidagi masalalar bo'yicha materiallarni tayyorlaydi va taqdim qiladi;

– Qo'mitaning qarorlarini, xulosalarini va bayonnomalarini oluvchilargacha yetkazadi.

– 4.12.Jamiyatning investisiyalarni jalb qilishga mas'ul bo'linmasining boshlig'i, ularning xodimlari Qo'mitaning majlislarida ovoz berish huquqsiz ishtirok etishlari mumkin.

– 4.13.Qo'mita vakolati doirasida qabul qilingan barcha qarorlar qabul qilingan kundan boshlab, Jamiyat ijroiya organi va boshqa mansabdor shaxslari uchun ijro etish majburiydir. Ushbu qarorlarda ko'rsatib o'tilgan mansabdor shaxslar qarorning o'z vaqtida hamda qaror ijrosiga mos ravishda bajarilishiga shaxsan javobgardirlar. Qo'mita qarorlari ijrosini nazorat qilish Qo'mita raisi tomonidan amalga oshiriladi.

V. Strategiya va investisiyalar qo'mitasi a'zolarining huquq va majburiyatlari

5.1. Qo'mitaning a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

– Jamiyat ijro organi a'zolarining va Jamiyatning boshqa mansabdor shaxslaridan o'z faoliyati uchun kerakli barcha hujjatlarni va materiallarni taqdim etishni talab qilish;

- Jamiyatning investisiyalarni jalb qilishga mas'ul bo'linmasidan hujjatlarni va materiallarni so'rab olish va ulardan foydalanish;
- agar Jamiyatga jiddiy moddiy zarar yetkazilishiga olib kelgan yoki yetkazilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan qoidabuzilishlar aniqlansa, ijroiya organi majlisi chaqirilishini talab qilish;
- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari xodimlari, shu jumladan rahbarlaridan ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha izohlar talab qilish;
- aybdor xodimlarni intizomiy, mulkiy va boshqa turdagi javobgarlikka tortish masalalarini rahbariyatiga ko'rib chiqish uchun taqdim qilish;
- Jamiyatning dastlabki buxgalteriya, moliya va boshqa hujjatlaridan foydalanish;
- Qo'mita vakolatlari doirasidagi qaror va topshiriqlarni bajarish, Qo'mita majlislarida ishtirok etish maqsadida zarur bo'lgan holatlarda Qo'mita raisi qarori bilan Jamiyatning rahbar shaxslarini, Jamiyat Kuzatuv kengashining boshqa a'zolarini davriy yoki muntazam ravishda taklif etish;
- Qo'mita fikriga ko'ra masalani chuqurroq o'rganilishiga zarur bo'lsa, Qo'mita vakolatlariga tegishli bo'lgan masala bo'yicha o'z tashabbusiga ko'ra, Jamiyat Kuzatuv kengashining boshqa qo'mitalarining fikrini talab qilib olish;
- Qo'mita majlisida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan reglament bilan ajratilgan vaqt doirasida so'zga chiqish, kun tartibidagi masalalar, qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining alohida fikrini Qo'mita majlisi bayonnomasiga kiritishni talab qilish;
- Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlash uchun mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar berish;
- taqdim etilgan hujjatlar asosida tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqish va Jamiyat Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritish;
- Qo'mita majlisi kun tartibiga kiritish uchun masalalar taklif qilish.

5.2. Qo'mita a'zolarining majburiyatlari:

- Qo'mita ishida qatnashish va uning muntazam ravishda o'tkaziladigan barcha yig'ilishlarida ishtirok etish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Nizom, Jamiyat Ustavi va ichki hujjatlari asosida o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish hamda o'z faoliyatini sidqidildan olib borish;
- tegishli sanoat va iqtisodiyotdagi tendensiyalarini, axborot texnologiyalari sohasidagi va Jamiyat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa sohalardagi yutuqlarni kuzatib borish;
- Jamiyat aksiyadorlarining xuquqlari, manfaatlari va qiziqishlarini himoya qilish prinsiplari asosida faoliyat yurgizish;
- Jamiyatning tijorat va xizmat sirlarini oshkor etmaslik hamda maxfiylik talablarini bajarish.

5.3. Qo'mitaning a'zolari Qo'mita majlisida shaxsan qatnashishlari shart. Agar majlisda qatnashish imkoniyati mavjud bo'lmasa, Qo'mita a'zosi sabablarini ko'rsatgan xolda Qo'mitani bu haqda xabardor qiladi.

VI. Strategiya va investisiyalar qo'mitasi a'zolarining javobgarligi

6.1. Qo'mitaning a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

6.2. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Qo'mitaning a'zolari javobgar bo'lmaydi.

VII. Yakunlovchi qoidalar

7.1. Mazkur Nizom Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan sanadan e'tiboran kuchga kiradi.

7.2. Ushbu Nizom, shuningdek, unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi takliflar Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi va Qo'mita a'zolari tomonidan kiritilishi mumkin.